

VULGARIZMLAR USLUBIY VOSITA SIFATIDA

Qurbonov Davronbek– Navoiy davlat pedagogika instituti o‘zbek tili va adabiyoti fakulteti talabasi.

Annotatsiya: Ushbu maqola vulgarizmlar va ularning tilshunoslikda uslubiy vosita sifatida qo‘llanishi haqida.

Kalit so‘zlar: vulgarizmlar, uslubiy vosita, varvarizmlar, ekspressivlik.

Vulgarizm, varvarizmlar qo‘llanilish doirasi chegaralangan so‘zlar guruhiga kiadi. **Vulgarizmlar** - haqorat ma‘nosida qo‘llanadigan so‘zlar. Bunday leksemalar yoki ularning vulgar ma‘nolari adabiy til birligi sanalmaydi, ularni qo‘llash nutq madaniyatiga xilof deb qaraladi, ammo badiiy asar tilida bunday so‘zlardan uslubiy vosita sifatida foydalaniladi.

Ushbu leksik qatlam so‘zlarida ko‘p hollarda ekspressivlik ifodalanadi, ya‘ni bunday so‘zlar asosan so‘zlashuv nutqiga xos bo‘lib, mualliflar tomonidan ekspressivlik hosil qilish uchun ishlatiladi. Bunday so‘zlar badiiy asarlarda qahramon tilini individuallashtirish maqsadida ishlatiladi. Ana shunday yo‘llar bilan nutqning ta‘sirchanligiga erishish mumkin.

Vulgarizmlarda o‘ta salbiy munosabat, kamsitish, mensimaslik, haqorat kabi bir qator ifoda semalari juda ochiq ko‘rinib turgan bo‘ladi. Bunday so‘zlar ko‘proq nominativ ma‘nolariga ko‘ra emas, ayni shu konnotativ ma‘nolariga ko‘ra nutqda yashaydi.¹:

Yuqorida aytilgan maqsadga ko‘ra yozma badiiy nutqda ham ishlatiladi va o‘ziga xos his- tuyg‘uni ifodalaydi.

Yuqorida aytilgan maqsadga ko‘ra yozma badiiy nutqda ham ishlatiladi. Quyidagi misolda varvarizm so‘z so‘zlovchining behihoya qattiq g‘azbini ifodalsh uchun qo‘llangan: – *Padaringga la‘nat!* – *Rais buva tashqariga chiqib battar entikdi.* – *“Katta domla” bo‘lmoq tugul akademik bo‘lmaysanmi! Hali shunaqani o‘ynatayki,*

¹ Yo‘ldoshev M. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari. Toshkent, 2007 yil. 60-bet.

shogirding bilan...–Tezroq,–dedi Shodivoyga o`shqirib. (O'. Hoshimov.) E, haromi, bas deyman senga, shallaqi! Xo`rdani ming shukur deb ichib o`tiraver. (Oybek.) Yolg'on gapirasan, xunasa, uyida bo'lmagansan. (T.M.) Dayus, dayus Vali tog'a, Mirvali tog'a dayus ... (S.Ahmad.). — Jallodning haromisini menga ber, itning bolasidek bo'g'ib tashlayman!— deb qichqirdi u. (123)

So'zlarni ko'chma ma'noda qo'llash bilan ham emotsional –ekspressiv bo'yoqdorlik hosil qilinadi: — *Ilon bolasi— ilon! Balki otasi o'rgatgandir. Lekin Madumarning atrofidagi ba'zi odamlar hamon shang'illashib, tahdid qilishar edi. (129-b.)*

Quyidagi kabi holat esa so'zlovchining tinglovchi yoki o'zga subyektga nisbatan salbiy munosabatda bo'lganida yoki ayrim shaxslarning kirdikorlarini ochish lozim bo'lgan paytlarda yuz beradi: *Anavi to'nkani nima qilamiz? – dedi Asadbek, jahlidan tushib ... (T.M.) Urish mana bunaqa bo'ladi, deb qoq jag'iga chunonam musht tushirdim-ki, Rais pufakdek uchib ketdi. Besh qadamcha nariga – ariq ichiga borib tushdi. Pishiq ekan, xunasa! (O'. Hoshimov."Ikki karra ikki besh") – Padaringga la'nat! – Rais buva tashqariga chiqib battar entikdi. – "Katta domla" bo'lmoq tugul akademik bo'lmaysanmi! Hali shunaqani o'ynatayki, shogirding bilan ... Tezroq! – dedi Shodivoyga o`shqirib. (280-b.)*

Vulgarizmlar ko'pincha so'zlashuv nutqiga xos hisoblanadi. Bunday leksemalar yoki ularning vulgar ma'nolari adabiy til birligi sanalmaydi, ularni qo'llash nutq madaniyatiga xilof deb qaraladi, ammo badiiy asar tilida bunday so'zlardan uslubiy vosita sifatida foydalaniladi². Ba'zan mualliflar qahramonning behiya tarng hissiy-emotsional holati, alam, qahru g'azabini ifodalash uchun haqorat so'zlardan foydalanadilar. Varvarizmlarning qo'llanishida ham ikki xil holat mavjud:1) atayin tilni buzib qo'llash, asar qahramonlari tilida qo'llanganda, salbiy xususiyatini ko'rsatish maqsadida qo'llandi; 2) boshqa o'zga tili so'zlarini aynan qo'llash bilan

² Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent, 2005 y. 203-b.

muallif boshqa til egasini o'z tilida "gapirtiradi". Bunday so'zlar kam qo'llanadi va bu holatga ijobiy qaraladi.

Badiiy matnning lisoniy xususiyatlaridan eng muhimi ham shundaki, unda boshqa leksik birliklar vulgarizm va varvarizmlar qo'llanishi mumkin. Bulardan badiiy asrlarda ifodalanayotgan maqsad va vazifalardan kelib chiqqan holda uslubiy vosita sifatida foydalaniladi.

Leksemalarning nutq ko'rinishlariga xoslanishi haqida gap ketganda, ularning badiiy asar tilida qo'llanishini alohida baholash kerak, chunki badiiy nutq bilan badiiy asar tili bir hodisa emas: badiiy nutq adabiy nutqning bir ko'rinishi, u albatta adabiy til me'yorlariga bo'ysundiriladi; badiiy asar tilida esa adabiy til me'yorlaridan chetga chiqish holatlari ham kuzatiladi: badiiy asardagi obraz va personajlar tilining tipiklashtirilishi shuni taqozo qiladi, demak, badiiy nutq badiiy asar tilining yetakchi komponenti, ammo yagona komponent emas. Unda badiiy nutq bilan parallel ravishda, asardagi maqsad va vazifalardan kelib chiqib, so'zlashuv nutqi qoliplari va elementlaridan, umumnutq qatlam so'zlaridan ham foydalaniladi: muallif nutqi, muallif tili shaklida berilayotgan bayon va izohlar, asosan, adabiy nutq me'yorlariga tayanadi (so'zlarning tanlanishi ham shunga asoslanadi), obraz va personajlar tilida esa funksional uslubning barcha turlaridan foydalaniladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Tursunov S. va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili. T. 1992, 118-bet.
2. Oybek. "Bolalik". "Sharq" n. T.2002.
3. Iqbol Mirzo. Sizni kuylayman. T.:2007. 131-b.
4. *O'TIL.–O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 jildlik.1-,2-,3-,4-,5-jildlari.T.:2006-2008. [Qavs ichida sahifa va jild ko'rsatilgan]
5. Asqad Muxtor. Chinor. @ elektron kutubxona

